



**“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM INNOVATSION
G‘OYALAR VA ILMIY METODIK
TARAQQIYOT STRATEGIYALARI”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

2025-yil 15-16-may.



Namangan

va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalar ta’limining sifatini oshiradi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday yondashuvlar o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isakov, A. (2023). Approaches to Teaching Art in a Digital Age: An Analytical Review of Research between 2000-2021. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 8-19.
2. M Nodira. Pedagogical bases of assessment in primary education *Asian Journal of Multidimensional Research* 11 (5), 197-207.
3. Mahmudova, M. D., & Quldasheva, M. N. (2019). USING FROM THE LEADING INNOVATIONAL METHODS IN TEACING ON THE THEME “SOCIAL-ECONOMICAL GROUPS OF THE WORLD COUNTRIES”, THE POLITICAL MAP OF THE WORLD AT THE PRESENT TIME. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4), 270-275.
4. N Makhmudova. The content of the development of independent cognitive activity in students through self-assessment *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (3), 215-221.
5. Nuraliyeva, K. I. (2021). BOSHLANGICH SINF OQUVCHILARINING KREATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 208-214.
6. OCHILOVA, F. (2025). PHILOSOPHICAL AND RELIGIOUS REFLECTION ON HEALTH AS THE HIGHEST VALUE OF HUMAN LIFE. *News of the NUUZ*, 1(1.2), 198-200.
7. Umarjonovna, J. T. (2024). Competency-Based Approach in Higher Education and Prospects for The Development of The Uzbek Language. *International Journal of Scientific Trends*, 3(11), 65-69.

8. Xusnetdinovna L. R. System And Stages Of Implementation Of Teaching On The Basis Of Modular Technology In Pedagogical Activity //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

9. Zaydinova M. S. Q., Djakbarova M. O‘zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari va o‘quvchilarda matnni tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 5. – С. 1610-1612.

10. Жакбарова Махлия Ибрагимжоновна (2022). Использование учебных заданий в развитии речевых навыков учащихся. Образование и инновационные исследования 12(1), 225-231.

11. Тажибоева, Г. (2023). Описание технологий формирования критического мышления у студентов в процессе преподавания предмета воспитание. *Общество и инновации*, 4(3/S), 70-79.

DUAL TA‘LIMNI GERMANIYA TAJRIBASIDA AHAMIYATI

Safarova Nilufar Vohidovna,

Qarshi davlat texnika universiteti

Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasida assistenti

nilufarvoxidovna@gmail.com

+998998574152

Annotatsiya. Professional ta‘lim tizimining huquqiy asoslari, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, Germaniya tajribasi asosidagi dual ta‘limning ahamiyati .

Kalit so‘zlar: professional ta‘lim, dual ta‘lim, dual ta‘limning afzalliklari, dual ta‘limning kamchiliklari, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda dual ta‘limning ahamiyati.

Аннотация. Освещены правовые основы системы профессионального образования, значение дуального образования в организации образовательных процессов, а также дуальное образование на основе опыта Германии.

Ключевые слова: профессиональное образование, дуальное образование, преимущества дуального образования, недостатки дуального образования, значение дуального образования в организации и управлении образовательными процессами.

Abstract. The legal basis of the professional education system, dual education in the organization of educational processes, the importance of dual education based on the German experience are highlighted.

Key words: professional education, dual education, advantages of dual education, disadvantages of dual education, importance of dual education in organization and management of educational processes.

Germaniyada “dual ta’lim tizimi” (nemischa: *duales Ausbildungssystem*) — bu kasbiy ta’limning noyob shakli bo’lib, nazariy bilimlar bilan amaliyotning uyg’unligini ta’minlaydi. Bu tizim o’quvchilar (odatda maktab bitiruvchilari) bir vaqtning o’zida o’quv dargohida (kasb-hunar maktabi — *Berufsschule*) va ishlab chiqarish korxonasida amaliyot o’tash orqali kasb o’rganishadi. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining bir bug’ini sifatida professional ta’lim tizimida o’quvchi-yoshlarda professional ta’lim, kasbiy kompetentliklarini shakllantirish, professional ta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish masalasi eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Turli rivojlangan davlatlar tajribalarini o’rganish, maqsadida ularning ijobiy tomonlarini o’zlashtirish, milliy qadriyat va an’analarimizni hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayoniga moslashtirish, joriy etish bo’yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) hamda O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi hamkorligida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va

boshqarish borasida amalga oshirilayotgan “O‘zbekistonda professional ta‘lim tizimini isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida professional ta‘limda dual ta‘limni tashkil etish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish uchun mamlakatimiz hukumati, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Pedagogik innovatsiyalar instituti, kasbiy ta‘limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari hamda professional ta‘lim muassasalari vakillarining akademik almashinuvlari amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning ta‘lim tizimi o‘rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o‘qish bilan bir vaqtda korxonalar, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta‘lim shakli O‘zbekiston ta‘lim tizimiga kiritildi.

Germaniyada amaliy dual ta‘lim nafaqat kasb-hunar ta‘limi, balki xususiy sektorda faol ishtirokida oliy ta‘lim bosqichida ham amalga oshiriladi shu bilan birga, o‘quv safari davomida oliy va professional ta‘lim tizimida dual ta‘limda o‘qitish jarayoni bilan yaqindan tanishish uchun Koblenz shahridagi Yuliusa Vegelera nomidagi kasb-hunar maktabi va Koblenz amaliy fanlar universiteti uchrashuvlarida qatnashdilar. O‘zbekistonda dual ta‘lim shaklida kadrlar tayyorlash bo‘yicha biznes-kompaniyalar va kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘rtasida xamkorlikning muvaffaqiyatli namunalari mavjud.

Korxonalar vakillarining fikricha, ushbu tizim ham talabalarning malakasi va kasb mahoratini, hamda mehnatini tashkil etish samaradorligini oshiradi. Dual tizim, unga aloqador barcha tomonlar – korxonalar, ishchilar, davlat manfaatlariga javob beradi. Korxonalar uchun bu xodimlarni «buyurtma berish» uchun o‘qitish, ularning barcha talablariga maksimal darajada muvofiqligini ta‘minlash, xodimlarni topish va tanlash, ularni qayta tayyorlash va moslashtirish xarajatlarini tejash imkoniyatini beradi.

Dual ta‘lim – o‘quvchi talabaga ta‘limni o‘z yo‘nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bunda yoshlar 2-3 kun ta‘lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxonalar va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko‘nikmalarni egallaydi. Dual ta‘lim shaklida tahsil

olayotgan o‘quvchi talaba korxonada va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxonada tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to‘lanadi. Maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga ega o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. Aytib o‘tganidek, yoshlar ta‘lim olish bilan bir qatorda haqiqiy ish joyida o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishadi.

Dual ta‘lim shakli professional ta‘lim tizimida yo‘lga qo‘yildigan kasb bo‘lib 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab, maktabgacha ta‘lim, temir yo‘l va qurilish kabi sohalarda o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash maqsadida professional ta‘lim muassasalariga dual ta‘lim shakli bo‘yicha 3 mingdan ortiq yoshlar o‘qishga qabul qilindi. 2022-2023 o‘quv yilida professional ta‘lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta‘lim shaklida o‘qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o‘tilgan sohalarga qo‘shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda ham dual ta‘lim shaklida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, 7,5 mingdan ortiq yoshlar respublikamizdagi professional ta‘lim muassasalarida dual ta‘lim shaklida ta‘lim olib, 1,5 mingga yaqin korxonada va tashkilotlarda ish faoliyatini olib bormoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni 2019 yil 6 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta‘lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli Qarori 2020 yil 7 avgust.



TALABALARNI MILLIY KONTENT ASOSIDA O‘QITISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. <i>Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich</i>	251
MILLIY KONTENT ASOSIDA EKUK VA EKUB TOPISH ALGORITMI. <i>Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich, Alijonova Diyora Akmaljon qizi, Yusupova Maxliyo Olimjon qizi</i>	255
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA DARSLIKLAR BILAN ISHLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI: O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIGI MISOLIDA. <i>Mirzakarimova Noila Doniyor qizi</i>	260
FUNKSIONAL SAVODXONLIK TUSHUNCHASI. <i>Mirzaliyeva Gulhayo Abdulazizovna, Umarov Elmurod To‘lqinovich</i>	265
O‘QUV JARAYONIDA MILLIY MADANIYATNI O‘RGATISHDA MULOQOTNING VERBAL VA NOVERBAL VOSITALARI. <i>Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi</i>	270
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKILLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA IMKONIYATLARI. <i>Mirzaxmedova Muxnisa Abdullajon qizi</i>	276
TA‘LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLARINING XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARI. <i>Mo‘minova Muhayyo Usmanovna</i>	282
PISA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDAGI TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI VA MILLIY KONTENTGA TA‘SIRI. <i>Mo‘minova Oydinoy</i>	288
KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL RIVOJIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RAG‘BATLANTIRISH VOSITALARI. <i>Muqaddam Raximova Abdulboqi qizi</i>	293
PEDAGOGIK OLIY TA‘LIMDA TALABALARNING TA‘LIM JARAYONIDAGI YETAKCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI. <i>Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi</i>	299
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA DARSLIKLAR BILAN ISHLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI (4K MODEL ASOSIDA). <i>Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi</i>	304
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQ KOMPONENTLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. <i>Obidova Shohsanam G‘anijon qizi</i>	309